

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/27.02.2020. T.73.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

NOJKO SEMYON IGOREVICH

**YUQORI OLTINGUGURTLI NEFT KOKSINI JALB QILGAN HOLDA
ELETROLITIK ALYUMINIY ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim os-
tida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioak-
tiv elementlar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертация доктора (DSc) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of (Dsc) on technical sciences

Nojko Semyon Igorevich

Yuqori oltingugurtli neft koksini jalb qilgan holda eletrolitik alyuminiy ishlab chiqarish texnologiyasi..... 3

Ножко Семён Игоревич

Технология получения электролитического алюминия при вовлечении вксокосернистого нефтяного кокса 25

Nojko Semyon Igorevich

Technology for producing electrolytic aluminum through the utilization of high-sulfur petroleum coke..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok opublikovannых rabot
List of published works..... 49

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/27.02.2020. T.73.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

NOJKO SEMYON IGOREVICH

**YUQORI OLTINGUGURTLI NEFT KOKSINI JALB QILGAN HOLDA
ELETROLITIK ALYUMINIY ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim os-
tida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioak-
tiv elementlar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Doktorlik (DSc) dissertasiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.1.DSc/T900 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslaxtchi:

Umarov Abdusalom Vaxitovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Nodirjon Qayumjonovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Kurbanov Mirtemir Shodievich
texnika fanlari doktori, professor

Zelberg Boris Ilych
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan texnika universiteti

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy DSc.15/27.02.2020.T.73.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil « » soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temir yo‘lchi ko‘chasi, 1-uy. Tel.: +998-71-299-00-01; faks: +998-71-293-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz, www.tstu.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent shahri, Adilxodjaev ko‘chasi, 1-uy. Tel.: +998-71-299-05-66; faks: +998-71-293-57-54.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil « » kuni tarqatildi.
(2025 yil « » № reestr bayonnomasi).

A.M.Arifjanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

E.U.Teshabaeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

N.Q.Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda alyuminiyning 99% dan ortig'i kriolit-gliozom eritmasidan elektrolitik tiklash usuli bilan ishlab chiqariladi, ushbu eritma yuqori korrozion faolligi bilan ajralib turadi va shuning uchun nafaqat elektr tokini o'tkazadigan, balki eritmani aralashmalar bilan ifloslantirmaydigan, kimyoviy va mexanik jihatdan barqaror bo'lgan materialni tanlash muammosi juda muhimdir. Shu sababli, ishlab chiqarilayotgan metall sifatini saqlagan holda iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirishga yordam beradigan past sifatli uglerodli xomashyolarni jalb qilish orqali oldindan belgilangan talablar asosida anod tanasini shakllantirishga qaratilgan alyuminiy olishning amaldagi texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda neft koksining tabiati, alyuminiy elektrolitik olishning asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari, alyuminiy elektrolizi jarayoniga kelib tushadigan oltingugurtli utilitatsiya qilish, ushlab qolish va qayta ishlash usullari, oltingugurtning alyuminiy elektrolitik olish jarayoniga ta'siri, tayyor mahsulot tarkibidagi zararli qo'shimchalar miqdorini kamaytirish, resurs tejankor texnologiyalarni yaratish, metal suyuqlanmalarni rafinatsiyalash, legirlash va modifikatsiyalash, yangi avlod alyuminiy kompozitsiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, belgilangan xossalarga ega alyuminiy olish uchun modifikatorlarni ishlab chiqish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda maxalliy xoashyolar gliozom konlari va neftni qayta ishlash zavodlari chiqindilaridan samarali kompleks foydalanish asosida rangli metallar ishlab chiqarish borasida ma'lum natijalarga erishilgan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...sanoatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish...»¹ kabi vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan alyuminiy olishda yuqori oltingugurtli neft kokslarini jalb qilishda moddiy va energetik xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan texnologik va texnik echimlar majmuasini ilmiy asoslash va ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2021 yil 24 iyundagi PF-5159-son «Kon-metallurgiya tarmog'i va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish to'g'risida»gi, 2017 yil 11 fevraldagi PQ-2298-son «2017-2019 yillarda mahsulot va materiallarni mahalliyashtirish (ishlab chiqarish) dasturi to'g'risida»gi, 2022 yil 24 yanvardagi PQ-99-son «Mamlakatda ishlab chiqarishni rivojlantirish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurslarni tejash» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Elektrolitik alyuminiy olish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy markazlari, oliy ta'lim muassasalari va kompaniyalarida, jumladan Massachusetts Institute of Technology, ALCOA, Kaiser Aluminium, Martin Marietta Aluminium, Comalco, Baltimordagi aerokosmik materiallar laboratoriyasi, Oak Ridge milliy tadqiqot laboratoriyasi (AQSh), Sumitomo (Yaponiya), Chalco, GAMI (Xitoy), EGA (Birlashgan Arab Amirliklari), ALCAN (Kanada), Reykjavik University (Islandiya), Norwegian University of Science and Technology, Elkem (Norvegiya), Pechiney (Fransiya), VAMI, MISiS, RUSAL ITC (Rossiya), Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Navoiy davlat konchilik instituti (O'zbekiston) va boshqalarda olib borilmoqda.

Alyuminiy elektrolitik ishlab chiqarishni o'rganish bo'yicha jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: «quruq» anod texnologiyasi ishlab chiqilgan (Sumitomo, Yaponiya); xomashyoni elektrolizyorga avtomatik uzatishda glinozemning xossalari o'rganilgan (Pechiney, Fransiya), quvvati 600 kA bo'lgan yuqori amperli elektrolizyor ishlab chiqilgan (EGA, Birlashgan Arab Amirliklari), inert anod texnologiyasi ishlab chiqilgan (RUSAL ITS, Rossiya), fosfor aralashmalarining xossalari o'rganilgan (Reykjavik University, Islandiya), drenajlangan katod texnologiyasi sinovdan o'tkazilgan (GAMI, Xitoy), yuqori tozalikdagi alyuminiy olishning samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan («MISiS» Fan va texnologiyalar universiteti, Rossiya); qotishmalarni rafinatsiyalash va modifikatsiyalash texnologiyalari ishlab chiqilgan (Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (O'zbekiston)).

Jahonda oltingugurt, vanadiy va fosfor konsentratsiyasini oshirishda alyuminiy olish texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: metallurgik jarayonlarning fizik-kimyoviy hisoblari va nazariy asoslarini chuqurlashtirish; alyuminiy elektrolitik olish jarayonining reaksiya tenglamalari va muvozanat konstantalarini olish, desulfurizatsiya va defosforatsiya jarayonlarining texnologik parametrlarini belgilovchi asosiy formulalarni keltirib chiqarish, elektrolit va metall o'rtasida oltingugurt va fosforning taqsimlanish koeffitsientlarini tavsiflovchi bog'liqliklarni aniqlash, o'zaro ta'sir parametrlari va boshqa texnologik parametrlarni aniqlashtirish; xomashyo tarkibidagi zararli aralashmalar miqdorining materiallarning mexanik xossalarga ta'siri bog'liqliklarini o'rganish, belgilangan xossalarga ega sifatli materiallar olishning resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Elektrolitik alyuminiy olish texnologiyasini takomillashtirish sohasida H. Oye, B. Welsh, R. Meirbekova, P. White, V. Potochnik, K. Grotgeim, J. Thonstad, A. Solheim, A. Sterten, A. Haupin, P. Solli, S. Rolseth, T. Pearson, M. Sorlie, K. Paulsen, H. Kvande, J. Xiao, Q. Zhong, A.I. Belyaev, V.I. Moskvitin, E.A. Yanko, V.D. Lazarev, M.M. Vetyukov, Yu.V. Baymakov, V.Yu. Bajin, V.M. Sizyakov, V.I. Chalix, G.A. Sirazutdinov, M.Ya. Minsis, N.D. Turaxodjaev, A.A. Riskulov, R.X. Saydaxmedov, F.R. Norxudjaev, Sh.S.

Fayzibaev, M.Sh. Kurbanov, A.V. Umarov, U.A. Ziyamuxamedova, B.T. Berdiyarov, N.Q.Tursunov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ular tomonidan qattiq shlakli aralashmalar va modifikatorlar yordamida metall eritmasini rafinatsiyalash va modifikatsiyalash usullari yaratilib, neft kokslarida oltingugurt miqdorining ortishi chiqindi gazlarni tozalash sifatining yomonlashishiga, alyuminiy ishlab chiqarish korxonalarining ekologik xavf-xatarlarining ortishiga olib kelishi, oltingugurtli kokslar-ning ishtirok etishi alyuminiy ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini pasaytirishi, quyish agregatlarida metallni rafinatsiyalash samaradorligini oshirish, alyuminiy shlak bilan rafinatsiyalash jarayoni-ning reaksiya tenglamalari va muvozanat konstantalari, desulfuratsiya va defosforatsiya jarayonlarining asosiy texnologik parametrlari, oltingugurt va fosforning shlak va metall o'rtasida taqsimlanish koeffitsientlarini tavsiflovchi formulalari, metall tarkibidagi zararli aralashmalar miqdori-ning ularning mexanik xususiyatlariga ta'siri aniqlanilgan.

Shu bilan birga, oltingugurt gazsimon birikmalarining metallurgiya sanoati mavjud bo'lgan shaharlardagi ekologik vaziyatga salbiy ta'siri, ko'plab konlarning ma'dan tanalarini qazib olish tufayli ishlatiladigan xomashyoning sifat xossalarini, xomashyo va neft mahsulotlarini qazib olishda energiya xarajatlarning aniqlash, iste'molchilarning ishlab chiqarilgan alyuminiy sifatini oshirish, past sifatli xomashyo va material-lardan foydalanish tufayli xarajatlarning oshishi, yuqori oltingugurtli neft kokslarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini, shuningdek, alyuminiy elektrolitik olishda yuqori oltingugurtli neft kokslarini jalb qilishning samarali texnologiyasini o'rganish va ishlab chiqish kabi murakkab muam-molarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent tabiiy fanlar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Maxalliy rangli metallar asosida kompozitsion kukunli o'tkazgichlar va yarim o'tkazgichlar yaratish» fundamental mavzu doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori oltingugurtli neft kokslarining fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish va ularni alyuminiy elektrolitik olishda qo'llash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuqori oltingugurtli neft koksining kimyoviy tarkibi va fizik xossalarini aniqlash;

ishlab chiqarilayotgan anod massasining ekspluatatsion xossalariga yuqori oltingugurtli koksning kimyoviy tarkibi va fizik xossalarining o'zaro bog'liqligini aniqlash;

yuqori oltingugurtli neft koksidan foydalangan holda anod massasini ishlab chiqarish texnologiyasini ilmiy asoslash va ishlab chiqish;

alyuminiy elektrolizyori-ning sanoat elektrolitining kristallanish jarayonini tadqiq qilish va yuqori oltingugurtli koksdan tayyorlangan anod massasidan foydalangan holda alyuminiy olishning energiya tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish;

sanoat gaz tozalash eritmalarini tadqiq qilish va alyuminiy ishlab chiqarishning gaz tozalash eritmalarini oltingugurt va fluor birikmalaridan regeneratsiya qilishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish;

alyuminiy ishlab chiqarishning gaz tozalash eritmalarini samarali regeneratsiya qilishning apparat sxemasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti neft koksi va neft koksidan olingan anod massasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti neft kokslarining fizik-kimyoviy xossalarini, ularning neft koksidan tayyorlangan anod massasining ekspluatatsion xossalariga ta'siri va olish texnologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqot usullari, metall va shlakning kimyoviy tarkibini aniqlash uchun atom-emission spektrometr, eksxalograf, rentgen-flyuorestsent analizator, tajriba natijalariga ishlov berishning statistika uslubi, Termogravimetriya, Differensial skanerlovchi kalorimetriya, QMS 403C Aelos kvadrupol mass-spektrometri (NETZSCH kompaniyasi), gazlarni tahlil qilish uchun bilan birlashtirilgan STA 449C Jupiter sinxron termoanalizatorlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

neft kokslarining sifat xususiyatlari va olinadigan anod massasining texnologik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik, yuqori oltingugurtli neft koksini anod massasi ishlab chiqarishga jalb etishning maqbul ko'rsatkichlari-kuydirish haroratini o'zgarishi, quruq koks shixtasining donador tarkibi aniqlangan;

ilk marotaba yaxshilangan iste'mol xossalariga ega bo'lgan anod massasini tayyorlash tarkibi ishlab chiqilgan;

ko'p komponentli sanoat elektrolitining kristallanish mexanizmi, elektrolitning o'ta qizish harorati hamda alyuminiy elektrolizyori ish parametrlari- kuchlanish, elektrolitning sathi va kimyoviy tarkibi, ishlatiladigan glinezomning donadorligi, glinezom bilan oqimli ishlov berish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan;

alyuminiy elektrolitik olish jarayonining yuqori energiya samaradorligini ta'minlaydigan alyuminiy elektrolizyori ishining optimal parametrlari-elektrolitni o'ta qizdirish harorati va elektrolizyorlarni glinezom bilan reglament-oqimli ishlov berish soni asoslangan;

alyuminiy ishlab chiqarishda oltingugurt va fluor birikmalaridan gazni tozalash eritmalarini selektiv regeneratsiya qilish va tovar mahsulot - natriy sulfat olish parametrlari -jarayon harorati, komponentlar konsentratsiyasi aniqlangan;

alyuminiy elektrolizyorida elektrolit suyuqlanmasining likvidus haroratini aniqlash, o'z-o'zidan yonuvchi anod va yuqori o'tkazuvchan alyuminiy ishlab chiqarish uchun elektrolizyorda anod shtiftlarini joylashtirish, regeneratsion kriolitni oltingugurt birikmalaridan tozalash usullari va qurilmalari ishlab chiqilgan;

alyuminiy elektrolitik usulda olishda yuqori oltingugurtli neft kokslaridan tayyorlangan anod massasini qo'llash texnologiyasi-anod sterjenlarini optimal joylashtirish, elektroliz qurilmalarining eng yuqori samaradorligini ta'minlovchi anod sterjenlarini ishlatishning chegaraviy shartlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft koksining tarkibidagi oltingugurt miqdoriga qarab kuydirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqarilayotgan anod massasining sifatli ekspluatatsion xossalarini yaxshilashni ta'minlaydigan quruq koks shixtasi komponentlarining granulometrik tarkibi ishlab chiqilgan:

elektrolitning o'ta qizish haroratini kuzatishga asoslangan alyuminiy elektrolizyori boshqarish algoritmi ishlab chiqilgan;

anod tugunining ishlashida texnologik buzilishlarning paydo bo'lishini minimal-lashtiradigan alyuminiy elektrolitik olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

alyuminiy ishlab chiqarishning gaz tozalash eritmalarini regeneratsiya qilishning samarali texnologiyasi ishlab chiqilib, sanoat sifatiga ega bo'lgan tovar mahsulotlari - natriy sulfat va kalsiy ftorid olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida keltirilgan natijalarning ishonchlilik darajasi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari majmuasi, tajribalarning takrorlanuvchanligi, olingan o'lchov natijalarini matematik qayta ishlash usullaridan foydalanishi va olingan ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati neft koksining sanoat elektrolitining kristallanish jarayonidagi qonuniyatlarini, ishlab chiqarilayotgan anod massasining sifat xususiyatlarini, shuningdek, alyuminiy olish jarayonining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan aniqlangan sabab-oqibat bog'lanishlari asosida yuqori oltingugurtli neft koksini qo'llanilish samarali texnologiyasini ilmiy asosini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan anod massasini tayyorlash texnologiyasidan foydalanish orqali elektroliz sanoati ish samaradorligini oshirish, alyuminiy elektrolitik olishning resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, oltingugurt va ftor birikmalaridan gaz tozalash eritmalarini selektiv regeneratsiyalash orqali atrof-muhitga ekologik yukni samarali kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Neft koksining fizik-kimyoviy xossalarini, sanoat elektrolitining kristallanish jarayonini, gaz tozalash eritmalarini regeneratsiya qilishni o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

«Alyuminiy elektrolizyorida elektrolit suyuqlanmasining likvidus haroratini aniqlash usuli va uni amalga oshirish qurilmasi» uchun Rossiya Federatsiyasi patenti olingan (NO 2303246. 07.12.2006 y.). Natijada tok bo'yicha chiqish 0,38% gacha oshirish imkonini bergan;

«O'z-o'zidan yonuvchi anod va yuqori tok o'tkazgichli alyuminiy ishlab chiqarish uchun elektrolizyorda anod shtirlarini joylashtirish usuli» uchun Rossiya Federatsiyasi patenti olingan (NO 2387742. 04.12.2009 y.). Natijada anoddagi kuchlanish farqi 20 mV ga, alyuminiy ishlab chiqarish uchun elektr energiyasi sarfini 67 kVt*soat/t ga kamaytirish imkonini bergan;

«Regeneratsion kriolitni oltingugurt birikmalaridan tozalash usuli» uchun Rossiya Federatsiyasi patenti olingan (NO 2401323. 04.05.2009 y.). Natijada kalsinatsiyalangan soda bo'yicha yiliga 8000 - 10000 t olish imkonini bergan;

elektroliz ishlab chiqarishining ftorli materiallarini qayta ishlash usuli «Aluminium Smelter Company of Nigeria alyuminiy zavodi» da amaliyotga joriy etilgan (Nigeriya Respublikasining 01.11.2008 yildagi 0812-son ma'lumotnomasi). Natijada tarkibida ftor bo'lgan materiallarning to'liq hajmini retsikling qilish imkoniyatini bergan;

elektroliz ishlab chiqarishida elektrolizyorning issiqlik balansini boshqarish texnologiyasi «RUSAL Krasnoyarsk alyuminiy zavodi» da amaliyotga joriy etilgan («RUSAL Krasnoyarsk alyuminiy zavodi» ning 2008 yil 28 noyabrdagi 15-son ma'lumotnomasi). Natijada tok bo'yicha chiqish 0,62% ga oshirish, alyuminiy xomashyosi ishlab chiqarishda solishtirma elektr energiya sarfi 56,2 kVt*soat/tonnaga kamaytirish imkonini bergan;

ishlab chiqilgan gaz tozalash eritmalarini regeneratsiya qilish texnologiyasi «RUSAL Bratsk alyuminiy zavodi» da amaliyotga joriy etilgan («RUSAL Bratsk» OAJning 2012 yil 22 iyundagi RB-Vn-12-01712-son ma'lumotnomasi). Natijada, gaz tozalash eritmalarini regeneratsiya qilishning taklif etilgan sxemasi oltingugurtli birikmalar miqdorini 50-70 g/dm³gacha kamaytirish imkonini bergan.

yuqori oltingugurtli kokslar ishtirokida alyuminiy elektrolitik olish texnologiyasi «Butunrossiya alyuminiy-magniy instituti» OAJ da amaliyotga joriy etilgan («Butunrossiya alyuminiy-magniy instituti» OAJning 2012 yil 30 martdagi 0703/12-231-son ma'lumotnomasi). Natijada maxsulot sifatini 1,4 barobarga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro ilmiy-texnik konferensiyada ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, jumladan, 14 ta maqola Scopus va WoS iqtiboslar bazasiga kiritilgan, 3 ta Rossiya Federatsiyasi patenti olingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, ilova hamda foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matnining asosiy qismi 200 sahifadan iborat.


DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, ularning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishlanmalarni joriy etish natijalari, ishning aprobatsiya natijalari va nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya

tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Alyuminiy sanoatining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari**» deb nomlangan birinchi bobida alyuminiy sanoatining hozirgi holati va rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan, neft koksining tabiati, alyuminiyni elektrolitik olishning asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari bo'yicha mavjud tadqiqotlar adabiyotlar sharhi keltirilgan. Oltinugurtni utilizatsiya qilishning mavjud usullari batafsil ko'rib chiqilgan, alyuminiy oltinugurtini elektroliz qilish jarayoniga kiruvchi oltinugurtni ushlab qolish va qayta ishlash samaradorligini oshirish zarurligi ko'rsatilgan. Alyuminiyni elektrolitik olish jarayoniga oltinugurtning ta'siri etarlicha chuqur o'rganilmaganligi ko'rsatilgan va bob yakunida tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlari belgilab olingan va asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Yuqori oltinugurtli neft kokslarini anod massasi ishlab chiqarishda qo'llash**» deb nomlangan ikkinchi bobi yuqori oltinugurtli kokslar ishtirokida anod massasi ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Yuqori oltinugurtli neft xomashyosini kuydirish haroratini o'zgartirish va quruq koks shixtasi komponentlarining granulometrik tarkibini o'zgartirish bilan anod massasini ishlab chiqarish texnologiyasi yaxshilangan ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan anod massasini ishlab chiqarish imkonini beradi. O'tkazilgan tadqiqotlar doirasida xom neft kokslarini optimal qizdirish sharoitlarini aniqlash uchun yuqori oltinugurtli va past oltinugurtli xom neft koksi namunalarining kompleks termik tahlili o'tkazildi. Xom yuqori oltinugurtli koksni 1300 °S gacha qizdirilganda o'rganish holati kam oltinugurtli koks namunasidan ba'zi farqlarga ega. Avvalo, koks strukturasi tartibga solish jarayonidan oldingi 500-900 °S haroratlarda destruksiya jarayonining yanada jadalroq kechishini ta'kidlash mumkin, bu esa ushbu bosqichda massaning sezilarli darajada kamayishida namoyon bo'ladi: kam oltinugurtli koks namunasi uchun 6,2% ga nisbatan 9,3% (1-rasm, TG egri chizig'i), shuningdek, massa kamayishining yuqori tezligi (DTG egri chiziq-lari).




1-rasm. Yuqori oltinugurtli xom neft koksi namunasining termik tahlili

Ushbu namuna uchun oldindan kristallanish jarayoni materialning solishtirma issiqlik sig'iminin katta o'zgarishi bilan tavsiflanadi: $\Delta S_r = 44,334 \text{ J/g} \cdot \text{K}$. Ushbu namunani qizdirish paytida ajralib chiqadigan gaz mahsulotlarining mass-spektrometrik tahlili (2-rasm) metan, propan, etan, asetilen, propan mavjudligini ko'rsatdi.



2-rasm. Yuqori oltingugurtli xom neft koksi mass-spektrometrik tahlili


Oltingugurt mahsulotlarining xatti-harakatlarida sezilarli farqlar mavjud. Birinchidan, yuqori oltingugurtli koks namunasida oltingugurt karbonil COS mavjud emas, ikkinchidan, $m/z=64$ (SO_2) uchun ion oqimi signalining intensivligi past oltingugurtli koks namunasiga qaraganda taxminan 2 baravar yuqori. Taqqoslash uchun 3-rasmda ikkala namuna uchun sinxron termik tahlil natijalari keltirilgan. Yuqori oltingugurtli xom neft koksin optimal qizdirish harorati taxminan 70°S ga yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Bu xom kam oltingugurtli va yuqori oltingugurtli kokslarni alohida qizdirish zarurligini ko'rsatadi.



3-rasm. Kam oltingugurtli va yuqori oltingugurtli xom neft kokslari sinxron termik tahlili.

Birlamchi alyuminiy ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan anod massasiga fizik, kimyoviy, elektrokimyoviy va strukturaviy xususiyatlarga oid juda qat'iy talablar qo'yiladi. Alyuminiy sanoatida qabul qilingan anod massasining sifatini nazorat qilish usullari siqilishga mexanik mustahkamligi, solishtirma elektr qarshiligi, g'ovakligi va kulini aniqlashdan iborat. Amaliyotda fakultativ parametr sifatida havo atmosferasida emirilishni nazorat qilish yoki SO₂ ham qo'llaniladi.


Anod massasining siqilishga mexanik mustahkamligini o'rganish namunaning emirilish paytidagi maksimal kuchlanishni aniqlash orqali amalga oshirildi. Neft koksi namunalarning mexanik mustahkamligining o'zgarishini mexanik mustahkamlikning oltingugurt konsentratsiyasiga bog'liqligi ko'rinishida o'rganish natijasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Anod massasining siqilishdagi mexanik mustahkamligining anod massasidagi oltingugurt miqdoriga bog'liqligi.


Rasmdan ko'rinib turibdiki, bu parametrlarning beqaror bog'liqligi (korrelyatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,30$) mavjud bo'lib, oltingugurt miqdorining oshishi bilan mexanik mustahkamlik chiziqli ravishda pasayadi.

Solishtirma elektr qarshilikni (UES) aniqlash tajribasida laboratoriya pechida diametri 50 mm va uzunligi 10 mm bo'lgan to'liq kuydirilgan anod massasidan silindrsimon namuna olindi. Solishtirma elektr qarshilikning anod massasidagi oltingugurt miqdoriga bog'liqligi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Anod massasi UES ning anod massasidagi oltingugurt miqdoriga bog'liqligi.

Ushbu bog‘liqlik, shuningdek, ushbu parametrlarning beqaror bog‘liqligi (korrelyatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,24$) bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, solishtirma elektr qarshilik iloji boricha kichik bo‘lishi kerak, ammo solishtirma elektr qarshiligi 80 m Ω *m gacha bo‘lgan anod massasidan foydalanishga ruxsat etiladi. Ushbu qiymat anod massasidagi oltingugurt miqdoriga 2,33% mos keladi. Neft koksi namunalarining g‘ovakligini aniqlash hisoblash usuli bilan amalga oshirildi. Kuydirilgan anod massasining haqiqiy zichligi gazni siqib chiqarish usuli bilan aniqlandi. Kuydirilgan anod massasining tuyulma zichligi silindrsimon namunaning massasi va hajmining nisbati sifatida aniqlandi. Tuyulma zichlikni hisoblash 0,01 g/sm³ gacha aniqlikda amalga oshirildi.




6-rasm. Anod massasi g‘ovakligining anod massa tarkibidagi oltingugurt miqdoriga bog‘liqligi.


Tuyulma zichlik qiymati ikkita aniqlashning o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida topildi, bunda ikkita parallel aniqlash natijalarining farqi 0,05 g/sm³ dan oshmasligi kerak edi. G‘ovaklikning oltingugurt konsentratsiyasiga bog‘liqligini eksperimental aniqlash natijasi 6-rasmda keltirilgan.

G‘ovaklik qiymati anod massasidagi oltingugurt miqdorining ortishi bilan chiziqli o‘radi, bu bog‘liqlik barqaror xarakterga ega (korrelyatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,48$), g‘ovaklik qiymati anod massasidagi oltingugurt miqdori 2,27% bo‘lganda kritik (32%) qiymatga erishadi. Kul miqdorining oltingugurt konsentratsiyasiga bog‘liqligini o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatdiki, anod massasidagi oltingugurt konsentratsiya-sining butun diapazonida kul miqdorining oltingugurt miqdoriga to‘liq bog‘liqligi yo‘q, shu bilan birga kul miqdorining kritik (0,5% dan ortiq) qiymatlari qayd etilmagan (7-rasm).

CO₂ ostida kuydirilgan anod massasining umumiy emirilishi va CO₂ ostida emirilish anod massasidagi oltingugurt miqdorining o‘zgarishi bilan barqaror bog‘liqlikning yo‘qligi aniqlandi (8-rasm).



7-rasm. Anod massasi kulligining anod massasidagi oltingugurt miqdoriga bog‘liqligi.



8-rasm. Anod massasidagi CO₂ ostidagi buzilishning anod massasidagi oltingugurt miqdoriga bog‘liqligi.

Shu bilan birga, kul miqdori bilan bo‘lgan vaziyatga o‘xshab, kritik qiymat (25 mg/sm²*soatdan ortiq) barcha kuzatuv diapazonida aniqlanilmadi. Olib borilgan tadqiqotlar doirasida neft koksining granulometrik tarkibi ham baholandi. 1 va 2-jadvallarda o‘rganilayotgan neft koksining granulometrik tarkibini tahlil qilish natijalari keltirilgan. O‘rtacha olganda, ko‘pchilik yuqori oltingugurtli kokslarning granulometrik tarkibi past oltingugurtli kokslarning granulometrik tarkibiga qaraganda kichikroq, ikkita yuqori oltingugurtli koks ishlab chiqaruvchilarda (TANEKO va Texnografit) 8 mm fraksiyaning kritik yuqori tarkibi qayd etilgan - 60% dan ortiq. Shu bilan birga, oltingugurt konsentratsiyasi va neft koksining yirikligi o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjudligi qayd etilgan.

Kam oltingugurtli kokslarning granulometrik tarkibini.

Koks ishlab chiqaruvchi	8 mm fraksiyasi miqdori, %
Rosneft - Angara MXK	47,6
Lukoil - Volgogradneftni qayta ishlash	51,0
Gazpromneft - Omsk neftni qayta ishlash zavodi	49,4
Rosneft - Komsomol neftni qayta ishlash zavodi	42,5
Novobaki NQIZ	50,4
Haydar Aliev nomidagi Boku neftni qayta ishlash zavodi	53,0
Rosneft - Achinsk neftni qayta ishlash zavodi	40,5
Turkmanboshi NQIZ	55,5
O'rtacha qiymat	48,7

2-жадвал.

Yuqori oltingugurtli kokslarning granulometrik tarkibi.

Koks ishlab chiqaruvchi	8 mm fraksiyasi miqdori, %
Antipin NQIZ	54,2
Lukoil - Permnefteorgensintez	49,4
Taneko	69,6
Texnografit	60,2
Novokuybishev NQIZ	55,3
Rusinvest neftni qayta ishlash zavodi	49,2
O'rtacha qiymat	56,3

Kam oltingugurtli va yuqori oltingugurtli neft kokslari namunalarini o'rganish granulometrik tarkib va oltingugurt miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon berdi, bu esa anod massasi namunalarini o'rganishda olingan oltingugurt konsentratsiyasining anod massasining sifat parametrlari bilan o'zaro bog'liqligini tasdiqladi (anod massasining siqilishga mexanik mustahkamligi va solishtirma elektr qarshiligining undagi oltingugurt miqdori bilan o'zaro bog'liqligi, anod massasining g'ovakligi va undagi oltingugurt miqdori o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligi). Bundan shunday xulosaga kelindiki, anod massasini ishlab chiqarishda quruq koks shixtasini tayyorlash parametrlarini optimallashtirish orqali ushbu ta'sirni bartaraf etish mumkin, chunki to'ldiruvchi donalarining maksimal qadoqlanishi briketlarning yuqori zichligi va mexanik mustahkamligini, shuningdek, past g'ovaklikni ta'minlaydi (3-жадвал).

3-жадвал.

Anod massasi xarakteristikalarini taqqoslash

Ko'rsatkichlar	Talab	Standart grantarkib	O'zgartirilgan grandtarkib
Mexanik mustahkamlik, MPa	kamida 30	30,2	32,3
Solishtirma elektr qarshilik, $\text{mkOm} \cdot \text{m}$	ko'pi bilan 80	77,3	73,8
G'ovaklik, %	ko'pi bilan 30	29,0	27,5


Anod massasining g'ovakligini kamaytirish va natijada anod massasining mexanik mustahkamligini oshirish va solishtirma elektr qarshiligini kamaytirish uchun koks shixtasi sintetikasidagi 0,08 mm fraksiyasi miqdorini 27,2 dan 40% gacha oshirish taklif etildi. Shu bilan birga, koks shixtasining umumiy sintetikasida chang fraksiyasining umumiy miqdori o'zgarishsiz qoldi. 3-жадвал tahlili shuni ko'rsatadiki, granulometrik tarkibning o'zgarishi ishlab chiqarilayotgan anod massasining texnik

xususiyatlarini optimallashtirish va shu bilan oltingugurt konsentratsiyasining oshishi ta'sirini kamaytirish imkonini berdi.

Shunday qilib, neft kokslarining moddiy tarkibi aniqlandi, oltingugurt miqdori o'zgarganda anod massasining xususiyatlari o'rganildi. Anod massasi xossalari neft koksidagi oltingugurt konsentratsiyasi bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish mantiqan bevosita yuqori oltingugurtli neft kokslarini jalb qilishda anod massasi xossalari optimallashti-rishga qaratilgan texnologik tavsiyalarga olib keladi.

Dissertatsiyaning «**Aluminiy elektrolizyorida yuqori oltingugurtli neft kokslaridan tayyorlangan anod massasini qo'llash**» deb nomlangan uchinchi bobida elektrolitning o'ta qizish haroratini kuzatishga asoslangan sanoat alyuminiy elektrolizyolarini sanoat sinovlari va boshqarish algoritmini joriy etish natijalari keltirilgan.

Ma'lumki alyuminiy elektrolizyolarining elektroliti ko'p komponent-li suyuqlanmasi bo'lib ($\text{Na}_3\text{AlF}_6 - \text{AlF}_3 - \text{Al}_2\text{O}_3 - \text{CaF}_2 - \text{MgF}_2$), uning asosini natriyli kriolit tashkil etadi. Bunday suyuqlanma asta-sekin sovitilganda birinchi bo'lib kriolit kristallanadi, chunki uning konsentratsiyasi u bilan evtektik aralashmalar hosil qiluvchi boshqa komponentlar konsentratsiyasidan ancha yuqori bo'ladi. Bu holda likvidus harorati eruvchanlik diagrammasidagi kriolit burchagiga tutashgan likvidus yuzasida yotadi va uni osongina aniqlash mumkin. Elektrolit nomuvozanat sharoitda kristallanganda ajralib chiqayotgan qattiq faza tarkibida suyuqlanmaning bir necha komponentlari bo'lishi mumkin, bunda uning tarkibi sovitish tezligiga bog'liq bo'ladi. Bunday holda, har bir komponentning butun tizimning erish haroratiga ta'sirini etarlicha aniq baholash mumkin emas. Elektrolit namunasining kristallanish jarayoni fazaviy o'tish issiqligining ajralishi bilan birga boradi: haqiqiy issiqlik ajralishi elektrolit hajmidagi kristallanayotgan faza miqdoriga bog'liq. Ravshanki, elektrolitning kristallanish temperaturasi deb birinchi kristallarning cho'ka boshlash temperaturasi emas, balki bir vaqtda kristallanayotgan fazaning eng katta hajmini xarakterlaydigan fazaviy o'tishning maksimal issiqlik effektidagi temperaturani hisoblash kerak (9-rasm).




9-rasm. Elektrolit tarkibiy qismlarining kristallanish harorati bo'yicha ehtimoliy taqsimlanishi.

Fazaviy o'tish energiyasining yaqqol (cho'qqi) ajralishida likvidus haroratini eng aniq qayd etish mumkin. Bunda ajralib chiqayotgan issiqlik mazkur o'zgarish jarayonida ajralib chiqayotgan issiqlik bilan to'liq qoplanadi. Issiqlik olib ketilishiga qaramay, suyuqlanma harorati o'zgarmaydi va sovish egri chizig'ida kristallanish haroratiga mos keladigan gorizontalar qism paydo bo'ladi. Egri chiziqning gorizontalar qismining kattaligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, yashirin o'zgarish issiqligi qancha katta bo'lsa va sovutilayotgan namunaning massasi qancha katta bo'lsa, yuzaning kattaligi shuncha katta bo'ladi. Sovutish tezligi oshishi bilan maydoncha kichrayadi.

Amaliy o'lchashlar shuni ko'rsatdiki, elektrolitning sovish egri chizig'idagi yorqin ifodalangan maydon juda kam hollarda qayd etiladi. Bu holda harorat egri chizig'ini vaqt bo'yicha differensiallash taklif etildi. Ichiga termopara joylashtirilgan tigeldan iborat bo'lgan datchikda kristallanishning boshlanish zonalarini suyuqlik-gaz va suyuqlik-qattiq fazalarining ajralish chegaralariga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, sanoat datchigida elektrolitni sovutish jarayonini etarlicha aniq 5 qismga bo'lish mumkin: 1-qism - suyuqlantirilgan elektro-litli tigelni sovuqroq muhitga joylashtirish bilan bog'liq sovutish tezligining keskin o'sishi. O'sish ma'lum bir barqaror qiymatgacha sodir bo'ladi; 2-qism - elektrolit suyuq holatda bo'lib, sovish tezligi yuqori daraja-da saqlanib turadi va u nisbatan doimiy bo'ladi; 3-qism - kristallanishning boshlanishi (bu qiymat bo'yicha erish harorati aniqlanadi) energiya ajralib chiqishi bilan tavsiflanadi, bu esa sovish tezligini ma'lum bir barqaror qiymatgacha sifatli o'zgartiradi; 4-uchastka - sovish tezligi o'zgarmaydi; 5-uchastka - fazaviy o'tish effekti o'zini namoyon qilgandan so'ng sovish tezligi yana orta boshlaydi. Olingan o'lchovlarning adekvatligi elektrolitga oqim bilan ishlov berishdan oldin va keyin (25 daqiqadan so'ng - elektrolit glinozyom bilan to'yingan paytda) elektrolitning sovutish harorati dinami-kasini taqqoslash orqali baholandi, ya'ni elektrolitdagi glinozyom miqdori sezilarli darajada o'zgaradi. Elektrolit tarkibidagi glinozyomning har bir foizi uning erish haroratini 4-5 darajaga pasaytiradi, shuning uchun oqimli ishlovdan so'ng elektrolitning o'ta qizishi sezilarli darajada oshishi kerak. 10-rasmda bevosita elektrolizyorda glinozyom bilan oqimli ishlov berishdan oldin (1-egri chiziq) va keyin (2-egri chiziq) elektrolit haroratining pasayish grafiklarining qiyosiy tavsifi ko'rsatilgan. Ishlov berishdan oldin va keyin likvidus haroratining pasayishi taxminan 25 °C ni tashkil etadi, bu umuman olganda nazariy ma'lumotlar bilan yaxshi mos keladi: chamasi, ko'rib chiqilayotgan holatda elektrolitdagi glinozyom konsentratsiyasi taxminan 5% ga oshdi. Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, taklif etilgan usul likvidus haroratini va elektrolitning o'ta qizishini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Olib borilgan ishlar doirasida turli texnologik omillarning elektrolitni o'ta qizdirishning maqbul qiymatiga, shu jumladan ishlatiladigan glinozyomning yirikligiga ta'siri o'rganildi. Ushbu ish doirasida avtomatik ta'minot tizimlari orqali ikkilamchi glinozyom ishtirokida elektrolitning optimal o'ta qizish harorati empirik ravishda aniqlandi - 12 °C. Birlamchi (qumli) glinozyomdan foydalanganda - 7 °C. Olingan bog'liqlikni tahlil qilish, birinchi navbatda, ishlatiladigan glinozyomning yirikligi bilan yaxshi bog'liqlikni ko'rsatdi. Elektrolitning o'ta qizish haroratini monitoring qilish asosida


elektrolizyorni boshqarish, tok bo'yicha chiqishni 0,62% ga oshirish va elektrolitik alyuminiy ishlab chiqarish uchun elektr energiya sarfini 56 kVt*soat/t alyuminiyga kamaytirish imkonini bergan.



10-rasm. Elektrolitni o'ta qizish haroratini o'lchashning adekvatligini baholash

